

ILK TARBIYA QO'RG'ONI

G'affarova Farangiz G'ayrat qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Abdurahmonova Dinara Yusupovna**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila va undagi munosabatlar, ota-onaning farzand tarbiyasidagi o'rni, farzandning ota-ona oldidagi burchi, oilada qaror toptirishi lozim bo'lgan xislatlar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ota-ona, farzandlar tarbiyasi, qanoatlilik, sabr-bardosh, g'amxo'rlik, fidokorlik, burch, oila, hurmat, yaxshilik.*

Oila. Mana shu kichikkina bir so'zda olam-olam ma'no mujassam. Har bir inson o'z oilasini, undagi insonlarni yaxshi ko'radi, hurmat qiladi va ardoqlaydi. Chunki dunyoga kelganimizning ilk kunlaridanoq biz ular bilan birga bo'lishni boshlaymizda. Kulsak kulib, yig'lasak bizga hamdard bo'lgan insonlarni nahot qadrlamasak? Xursandchilik yoki biroz dilingiz og'rigan vaqtlarni bir eslab ko'ringa... Bunday vaqtlarda hech yolg'iz qoldingizmi? Aslo, ota-onangiz, aka-singlingiz doimo siz bilan yelkama yelka turishdi. Yutuqlarga erishganingizda sizdanda ko'proq ular quvonishdi. Dunyodagi eng katta baxtlardan biri shu emasmikan? Jajjigina bolajonlardan oila haqida so'raganimizda ular to'lib toshib bobom, buvim, otam, onam... deya jo'shib gapira boshlaydi. Mittigina qalblarda ham oilaga mehr-muhabbat namoyon. Agar ular oila davrasida o'zini erkin, e'tiborga loyiq va kerakli inson ekanligini his qila olsa, bunday bolalar shaksiz, kelajakda ham oilaparvar, oila a'zolari haqida qayg'uruvchi, mehnatkash, mehribon bo'lib ulg'ayishadi. O'z farzandlarini ham shunga monand tarbiyalab, yurtimiz ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shuvchi insonlar qilib o'stiradi.

“Tarbiya kitobi” degan asarni mutolaa qilayotganimda, bir hikoya menga boshqacha ta'sir qilgan edi. “Do'st ota” deya nomlangan ushbu hikoyada quyidagilar aks etgandi:

“Inidan pastga qarab o'tirgan burgutcha onasidan so'radi:

- Oyi, anavi uchib yurganlar qanaqa qushlar?
- Ular bizning do'stlarimiz,- dedi oyisi.

Birozdan so'ng burgutcha birdan baqira boshladi:

- Oyi qarang, ular ovqatimizni o'g'irlashyapti.

- Tinchlan o'g'lim, ular o'g'irlashayotgani yo'q, men o'zim ularni mehmon qildim.

Kuchlilar har doim zaiflarga g'amxo'rlik qilishlari kerak, do'st bo'lishning qoidasi shunaqa! – dedi oyisi burgutchaga.

- Unda dadam bizning eng yaxshi do'stimiz ekanda, shundaymi oyi?- deb so'radi yana burgutcha.

- Albatta, chunki dadang bizga g'amxo'rlik qiladi, lekin u buni oddiy otalik vazifasi deb biladi.

- Oyi, mehribon ota bilan do'stlarning o'rtasida qanday farq bor?- yana so'radi burgutcha.

Ona burgut bu savolga javob topa olmay o'ylanib qoldi, bu haqda o'ylab ko'rmagan ekan. Burgutchaning yana savol berishga tayyorlanayotganini ko'rib:

- Katta bo'lib sen ham ota bo'lganingda bilib olasan, endi uhla, dedi ona burgut bolasini qanotlari ostiga olar ekan.

Ey farzand, bilginki, hayotda ota bo'lish hammaning ham qo'lidan kelishi mumkin. Ammo do'st ota bo'lish qiyindir.

Darhaqiqat, oila ustuni, oila boshi albatta otadir. Hozirgi hikoyada burgutlar orqali oiladagi otaning va onaning roli, farzandga bo'lgan munosabati, do'stlik tushunchalari ochib berilgan. Ona farzandiga otasining ular uchun tinmay harakatda ekanligini, g'amxo'r ota va eng yaxshi do'sti aynan otasiligini o'z o'rnida tushuntirib keta oldi. Kelajakda ota bo'lganida xuddiki, o'z otasi singari farzandlariga ham yaxshi do'st bo'lishi lozimligini aytib o'tdi. Burgutcha onasiga tinmay savol berdi. Ona ham bo'ldi qil deya polaponini siltamadi. Qo'lidan kelganicha uning savollariga javob berdi. Qachonki, uni o'yga toldiradigan savolga yo'liqquncha. Ha aziz ota-onalar, farzandingiz ziyrak, bilimga chanqoq, har narsadan nimadir topishga intiluvchi, bilimdon, zukko bo'lib zamonga moslashishmoqda. Ota-ona qachonki, farzandi savollarini javobsiz qoldirmay, ularning qiziqishini e'tiborga olsa, gapirgan payti buncha mahmadona bo'lmasang aralashma deya ularni o'zidan itarmasa, farzandi o'z erkin fikrini bildira oluvchi, katta-katta davralarda ham hayajonsiz o'zining munosabatini bemalol bildira oluvchi yetuk shaxs bo'lib yetishadi. Buning uchun esa, avvala ota-onadan ham biimdonlik, dunyoqarashi keng, mutolaa bilan o'zini oz bo'lsada band qila olishlik talab qilinadi. Zero, qush uyasida ko'rganini qiladi. Agar farzandingizga kitob o'qi deya, unga kitob tutqizsangiz-u, biroq o'zingizning qo'lingiz telefon bilan band bo'lsa, afsuski farzandingiz ham xuddi siz kabi telefonga mehr qo'yadi. Vaqtini shu bilan o'tqazishga odatlanadi. Oila davrasida asarlarni muhokama qilishga, birga adabiyotlarni mutolaa qilisha nima yetsin. Shubhasiz, buning gashti o'zgacha. Bir kitobda ko'zim tushgandi: "Hayoli qiz borini yeydi, Hayosiz qiz orini yeydi". Qiz farzand kelajakda qaysidir oilaning bekasi, ona bo'ladi. Qanoatli, hayoli, iymonli bo'lib oilada tarbiya topgan qiz, qaynona-qaynotasining ham, turmush o'rtog'ining ham va albatta sizlarning ham yuzingizni aslo yerga qaratmaydi. Onalik baxtiga muyassar bo'lgach esa farzandlariga to'g'ri tarbiya bera oladi. Farzandlar tarbiyasiga befarq bo'lish mumkin emas. Chunki ular bizning kelajagimiz. Ularni jamiyatga nafi teguvchi, komil inson qilib tarbiyalash avvalo, ota-ona zimmasidadir.

Yurtimizda oilaga, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor albatta tahsinga loyiq.

Prezidentimizning 2018-yil 27-iyundagi qarorlariga muvofiq 15-may „Xalqaro oila kuni“ sifatida nishonlanmoqda. Bu ham vatanimizdagi oilaga qaratilayotgan e'tiborga

yaqqol dalildir. Zero, oila tarbiya maskani, jamiyatning bir bo'lagi, kichik bir vatan, hayotimiz davomchisi bo'lgan farzandlar, yosh avlodlar tarbiya o'chog'idir. Shunday ekan, oilamizni asrab avaylaylik, bir-birimizga mehr-oqibatli, shirin zabon bo'lib, baxt qasrimizni yanada yashnataylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Tarbiya kitobi"- Muhammadamin To'xliyev, Abdumurod Tilavov. Toshkent 2017
2. "Qizlar daftariga"- Mirzakalon Ismoilov. Yangi asr avlodi nashriyoti 2016
3. "Maqollar to'plami"- Adabiyot uchqunlari nashriyoti 2017.